


A.N. MAXMUDOV

**YENGIL SANOAT KORXONALARIDA
TANNARX HISOBI VA AUDITINI
TAKOMILLASHTIRISH**





657.5
M.32


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAXMUDOV AZAMAT NORMURADOVICH

**YENGIL SANOAT KORXONALARIDA
TANNARX HISOBI VA AUDITINI
TAKOMILLASHTIRISH**

(MONOGRAFIYA)



Toshkent – 2023

UO'K: 657.1:006.01(575.1)

KBK: 65.053

M 94

M 94 **A.N.Maxmudov. Yengil sanoat korxonalarida tannarx hisobi va auditni takomillashtirish. Monografiya. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2023, 236 bet.**

ISBN 978-9910-01-037-8

Mazkur monografiyada xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va uning tahlilini takomillashtirishning dolzarb masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishida moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalarni reversiv tarzda aks ettirish, xalqaro hisoblash tamoyili asosida moliyaviy hisobot tayyorlash, vertikal balans-netto shakli va konsolidatsiyalashgan hisobotning ishchi transformatsiya jadvalarini tatbiq etish, moliyaviy hisobotning muhim elementlarini qadrsizlanishi bo'yicha rezerv tashkil qilish, sof aktivlar qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanish masalalari kabi sohalarda chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan.

UO'K: 657.1:006.01(575.1)

KBK: 65.053

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti akademik faoliyat bo'yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
M.P.Eshov tahriri ostida

Taqrizchilar:

N.Sh. Xajimuratov – i.f.d., prof. (TDIU);

A.I. Alikulov – i.f.d., prof. (SamVMI);

I.N. Qo'ziyev – i.f.d., prof. (TMI).

Monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy Kengashining 2023-yil 4-iyuldagi 11-sonli qaroriga asosan chop etiladi.

ISBN 978-9910-01-037-8

© A.N.Maxmudov, 2023;

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.

KIRISH

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlari ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish va diversifikatsiyalash asosida milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish orqali jahon bozorida raqobatdoshligini kuchaytirishga erishmoqdalar. «2021-yilda jahon to'qimachilik bozorining hajmi 993,6 milliard AQSH dollariga baholandi, 2022 – 2030-yillar oralig'ida yillik o'sish sur'ati 4,0 foiz bo'lishi kutilmoqda»¹. Hozirgi kunda dunyo miqyosida yengil sanoat kerkonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish, mahsulot tannarxini aniqlash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Jahon mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'r jihatdan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati va hisobotlarining to'g'ri va aniqlik darajasiga bog'liqligini e'tirof etilgan holda xarajatlar va daromadlarning boshqaruv hisobi va ichki auditini takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida hamda ular bo'linmalarining xo'jalik faoliyatini boshqarish uchun buxgalteriya hisobini rivojlantirish va axborot bazasini yaratish, yengil sanoat tizimini boshqarish tizimining umumiy tarkibida xarajatlarni boshqarishning metodologik asoslarini ishlab chiqish, yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va uning auditini rivojlantirish, yengil sanoat tizimida xarajatlar boshqaruv hisobini tashkil etishning uslubiy jihatlarini o'rganish, tikuv-trikotaj korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditini rivojlantirish bo'yicha bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

1 <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga muvofiq iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan yengil sanoat korxonalariga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. "Zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish asosida to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravar va charm-royabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni 3 baravarga ko'raytirish"² vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, respublikamiz yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishning ishlab chiqarish xarajatlarini rasaytirish, foydani oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi tanlab olingan. Shu maqsadda yengil sanoat korxonalari faoliyatini modernizatsiyalash va mahsulotlar assortimentini diversifikatsiyalash maqsadlari uchun hisob va audit tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash mamlakatimizdagi yengil sanoat, xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining eksport salohiyatini oshirishni taqozo etadi. Yengil sanoat korxonalarining ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishni ilmiy asoslarini yaratish talab etilmoqda. Shu jihatdan, xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizdagi yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21- yanvardagi RF-53-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 5-maydagi RF-5989-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi RF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2019-yil 16-sentyabrdagi RQ-4453-son «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 24-fevraldagi RQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-areldagi 171-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori hamda mazkur sohaga oid yana bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. YENGIL SANOAT KORXONALARIDA HISOB VA AUDITNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining hozirgi holati hamda rivojlanish istiqbollari

O'zbekiston Respublikasidagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o'rinlarini yaratish, korxonalarni texnik va texnologik yangilash, ilg'or "klaster modeli"ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatiga investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmini ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimlarini qo'llash orqali sifati jihatidan mukammal va raqobatbardosh bo'lgan turli xildagi mahsulotlarni yaratish asosida jahon bozorlarida barqaror o'rin egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida paxta xomashyosini yetishtirishdan tortib unga dastlabki ishlov berish, mahsulotlarni to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida qayta ishlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini uyg'unlashtiruvchi klaster modelini amaliyotda qo'llash, ishlab chiqarish jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalar, nou-xau va ishlanmalarini joriy etish orqali yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksporti hajmini oshirish, shuningdek, milliy mahsulotlar brendlarini jahon savdo bozorlarida

keng targ'ib qilish kabi maqsadlarga investitsiyalarni yo'naltirish dolzarb hisoblanadi. 2025-yilga borib to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7 milliard AQSH dollariga yetkazish kabi vazifalar belgilangan³.

2022-yilning dastlabki ikki oyida O'zbekiston 15 ta xorijiy davlatlarga qiymati 45,6 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan qariyb 8 ming tonna trikotaj mahsulotlarini eksport qilgan.

Trikotaj mahsulotlari eksporti hajmi o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 8,4 mln. AQSH dollariga oshgan. 2022-yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston trikotaj mahsulotlarini eng ko'p eksport qilgan davlatlar Rossiya – 14,5 mln, Qirg'iziston – 14,2 mln, Italiya – 8,6 mln, Ukraina – 2,8 mln AQSh dollari. 2022 yilning ikki oyida trikotaj mahsulotlarini eng ko'r eksport qilgan hududlar Toshkent shahri – 19,1 mln, Toshkent viloyati – 9,1, mln, Andijon viloyati – 6,4 mln, Buxoro viloyati – 3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan⁴.

Shu bilan birga, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o'zgaruvchan konyunkturasi sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yanada barqaror va jadal rivojlanishi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Bu borada To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida amalga oshirilayotgan islohotlar tarmoqni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, to'qimachilikda yarimtayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishlashga yo'naltiriladigan investitsiyalar, tayyor mahsulotlar eksporti hajmini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida tarmoqni rivojlantirish jamg'armasi tashkil qilindi. Ushbu shakllantirilgan mablag'larni sarflanishini 1-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi RQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.

⁴ "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlandi.

Jahonda kiyim-kechak mahsulotlariga bo'lgan talab darajasi aholi sonini ko'payishi hisobiga yildan-yilga oshib bormoqda. To'qimachilik mahsulotlari bozoridagi o'zgarishlar kiyim-kechak bozoriga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jahonda kiyim-kechak mahsulotlari eksportida ham Xitoy keyingi yillarda yetakchilik qilib kelmoqda.

2022-yilning dastlabki ikki oyida O'zbekiston 15 ta xorijiy davlatlarga qiymati 45,6 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan qariyb 8 ming tonna trikotaj mahsulotlarini eksport qilgan.

1-jadval

**To'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'ini rivojlantirish
jamg'armasi xarajatlarini shakllanishi⁵**

№	Xarajat yo'nalishlari	Ming so'm
1	Ko'rgazmalarda ishtirok etish xarajatlari	5 381 447,7
2	Xalqaro standartlarni joriy etish	1 026 520,0
3	Ilmiy tadqiqot, innovatsion loyihalarni amalga oshirish	600 000,0
4	Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish, xorijiy mutaxassislarni jalb etish	2 441 439,6
5	Uyushma moddiy texnik bazasini mustahkamlash	1 596 003,0
6	Uyushma xodimlarini saqlash va moddiy qo'llab-quvvatlash	7 746 826,0
7	Homiyliklar, mahallalarni qo'llab-quvvatlash	1 240 891,0
8	Soha xodimlari va farzandlari uchun sog'lomlashtirish obyektini tashkil qilish uchun	9 000 000,0
9	Ko'rgazma va kooperatsiya markazi obyektlari xaridi(tashkillashtirish) uchun, ishlab chiqarish obyektlari*	0,0
	Jami	29 033 127,3

Amerika Qo'shma Shtatlari 2020-yilda to'rtlikdan o'rin olgan. Jahon savdo tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, yil oxirida 2010-

⁵ <https://uzts.uz/hisobotlar/toqimachilik-va-tikuv-trikotaj-tarmogini-rivojlantirish-jamgarmasi-harajatlari-tezkor/>

yil darajasiga nisbatan eng yaxshi 10 ta global TOR to'qimachilik eksportchilari o'z mahsulotlari hajmlarini oshirishga erishgan. XXR (1,0 %) va Vetnam (8,0 %) mamlakatlarida 2019-yilga nisbatan o'sish, qolgan mamlakatlarda rasayish kuzatilgan. Eksport hajmi 2020-yilda 2019-yilga nisbatan yuqori o'sishi Vetnamda kuzatilib, o'sish darajasi 8 % ni tashkil etgan, eng yuqori rasayish Xitoy Tayreyda kuzatilib, uning darajasi 8 % ni tashkil etgan (2-jadval).

Aylanma mablag'larni to'ldirish (tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun ip-kalava, trikotaj mato, ip gazlama va boshqa-lar xarid qilish) maqsadida tijorat banklari tomonidan milliy valutada beriladigan kreditlar bo'yicha belgilangan foiz stavkasining 25 foizi miqdorida, ammo 5 foizli punktdan yuqori bo'lmagan holda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish (bino va asbob-uskunalarni sotib olish) maqsadida tijorat banklari tomonidan xorijiy valutada beriladigan kreditlar bo'yicha belgilangan foiz stavkasining 50 foizi miqdorida kreditlar ajratish ko'zda tutilgan.

2-jadval

Mamlakatlar bo'yicha jahonda to'qimachilik mahsulotlari eksporti (qiyimdan tashqari)6, mlrd. AQSH doll.

Eksportyorlar	Eksport hajmi, 2020 y.	Jahon eksport/ imrortidagi ulushi				Yillik o'zgarish, %			
		2000	2005	2010	2020	2010	2018	2019	2020
Xitoy	1120	10,3	20,2	30,4	39,2	5,0	5,0	8,0	1,0
Yevropa Ittifoqi (28 mamlakat)	66	36,4	34,8	26,9	21,7	0	5,0	7,0	-6,0



2-jadvalning davomi

Hindis-ton	17	3,6	4,1	5,1	5,6	3,0	6,0	4,0	-5,0
AQSH	13	7,0	6,1	4,8	4,4	1,0	3,0	1,0	-3,0
Turkiya	12	2,4	3,5	3,5	3,9	3,0	5,0	4,0	-1,0
Janubiy Koreya	9	8,1	5,1	4,3	3,0	-2,0	-2,0	0	-7,0
Xitoy Tayrey	9	7,6	4,8	3,8	2,8	-1,0	3,0	0	-8,0
Vetnam	9	0,2	0,4	1,2	2,9	12,0	21	13	8,0
Rokis-ton	7	2,9	3,5	3,1	2,3	-1,0	2,0	2,0	-11
Gon-kong	6	-	-	-	-	-6,0	-4,0	-3,0	-13
- o'z ekporti	0	0,8	0,3	0,1	-	-11,0	7,0	3,0	11
- reek-sport	6	-	-	-	-	-6,0	-4,0	-3,0	-14
Jami TOR-10	262	79,2	82,7	83,3	85,8	-	-	-	-

2019-2025-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Sohaga kompleks yondashuv asosida xomashyoni qayta ishlash, tayyor mahsulotni, shu jumladan, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hamda qo'llab-quvvatlash asosida ishlab chiqarish va eksport qilish, to'qimachilik mahsulotlarini sotishning ichki va tashqi bozorlarini tadqiq qilish ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, qo'shimcha qiymat yaratishning yagona zanjirini tuzish respublikada ishlab chiqariladigan paxta irkalavalarning butun hajmini qayta ishlash hisobiga 2025-yilga borib to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi belgilab berildi. O'zbekistonda bir yilda kamida bir

marotaba to'qimachilik tadbirlarini jahon kalendariga kiritgan holda, to'qimachilik va moda industriyasi xalqaro ko'rgazmalari o'tkazilishi choralarini ko'rish belgilandi.

Yevropa ittifoqi, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan ko'rib chiqilayotgan kelishuvlarga milliy to'qimachilik mahsulotlariga nisbatan bojxona to'lovlarini kamaytirish va tartibga solishning notarif choralarini soddalashtirish masalalari kiritildi. Kichik tadbirkorlik subyektlarini to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarini eksport qilishning to'liq jarayoniga masofaviy o'qitish va butun dunyo mamlakatlari bo'yicha to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarini olib kirish va olib chiqish tahlili yuzasidan to'liq hisobotlar bilan tanishish vazifalari belgilab olindi. "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash navigator choralari"ni ko'rish hamda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati ishlab chiqaruvchilar hamda xizmatlar, materiallar va xomashyo yetkazib beruvchilar joylashuvi ko'rsatilgan O'zbekistonning interaktiv xaritasini yaratish vazifasi yuklatildi. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan onlayn-dasturiy mahsulotlarni xorijiy analoglar bilan integratsiya qilish, moliya xizmatlarini, shu jumladan, lizing kontraktlari bo'yicha qarz mablag'larini, uskunalarni hamda sug'urta xizmatlarini jalb qilish bo'yicha yetkazib beruvchilarni aks ettirish kabi masalalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali paxta irkalavasi va trikotaj matoni olib chiqishda 2021-yil 1-yanvardan boshlab olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava uchun 0,01 AQSH dollari, 2022-yil 1-yanvardan olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava va trikotaj mato uchun 0,05 AQSh dollari, 2023-yil 1-yanvardan — 0,1 AQSH dollari, 2025-yil 1-yanvardan — 0,2 AQSH dollari miqdorida yig'im undirilishi va trikotaj mato eksportidan undirilgan yig'implar bundan mustasno. To'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmoqlari korxonalarida xalqaro standartlarni joriy

etish, tayyor mahsulotlarni tashqi bozorlar talablarini hisobga olgan holda sertifikatlash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish, tarmoq korxonalarining xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etishi, milliy brendlarni yaratishi va ilgari surishi bilan bog'liq xarajatlari qorlanishi, ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, jumladan ularni xorijga o'qish uchun yuborish kabi dolzarb vazifalarning yechimlari aniq qilib belgilab berildi.

To'qimachilik sanoati mahsulotlari boshqa yengil sanoat tarmoqlari, shu jumladan, tikuv-trikotaj (kiyim-kechak) lar uchun xomashyo bo'lib xizmat qiladi va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda ham qo'llaniladi (bu birinchi navbatda noto'qima materiallarga tegishli).

Ishlab chiqarilgan mahsulot guruhlari nuqtayi- nazaridan sanoatning asosiy mahsulotlari tola, ip va matolar hisoblanadi. Mato sanoatning "yakuniy" mahsuloti sanaladi. To'qimachilik mahsulotlarining asosiy iste'molchisi tikuvchilik sanoati hisoblanadi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarining jahondagi global imrortida esa unda yetakchilar Yevropa Ittifoqi, Vetnam, XXR va AQSH sanaladi. Har qanday holatda ham, to'qimachilik mahsulotlari jahon imrorti hajmida TOR-4 mamlakatlarning qo'shma ulushi 2020 yilda 76,9 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2000-yilda esa 52,8% ga teng bo'lgan. Bunga asosiy sabab bu davrda kiyim-kechak ishlab chiqarishning rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tkazilishi sanaladi (3-jadval).

Jahonda 2019-yilda tola ishlab chiqarish hajmi 111 mln. tonnani tashkil etgan. Jahonda tola ishlab chiqarish hajmi oxirgi 20 yilda ikki barobarga oshgan bo'lib, hozirgi o'sish sur'ati saqlab qolingan holda uni ishlab chiqarish hajmi 2030-yilga borib, 146 mln. tonnani tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Bu esa so'nggi 10 yilda bugungi tola hajmi o'sishiga nisbatan qariyb 3 barobar ortiq o'sish degani.

Maqsad nuqtayi nazaridan, bozorda deyarli barcha sohalarda, jumladan, ishlab chiqarish texnologiyasining yordamchi elementlari

sifatida ishlatiladigan mato va noto'qima materiallar, asosan, sintetik tolalardan tayyorlangan texnik to'qimachilikka bo'lgan talab ortib bormoqda. Texnik to'qimachilik mahsulotlarining bozordagi ulushi 2018-yilda jahonda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlari umumiy hajmining 16 % ga yetdi. Bu soha hozirgi kunda AQSHning to'qimachilik sanoati uchun ustuvor hisoblanadi.

3-jadval

**Mamlakatlar kesimida jahonda to'qimachilik mahsulotlari
importi(qiyimdan tashqari)7, mlrd. AQSH doll.**

Importyorlar	Import hajmi, 2020 y.	Jahon eksport/importidagi ulushi				Yillik o'zgarish, %			
		2000	2005	2010	2020	2010	2018	2019	2020
Yevropa Ittifoqi (28 mamlakat)	67	34,9	33,6	27,8	21,3	1	5	5	-5
AQSH	31	9,7	10,5	8,7	10,0	3	3	8	-2
Vetnam	16	0,8	1,6	2,6	5,2	10	9	11	1
Xitoy	16	7,8	7,2	6,6	5,0	-1	4	3	-12
Bangladesh	10	0,8	1,1	1,7	3,1	9	6	17	-6
Yaponiya	9	3,0	2,7	2,7	2,8	2	3	6	-1
Buyuk Britaniya	7	4,4	3,5	2,7	2,3	0	1	1	-2
Indoneziya	7	0,8	0,4	1,6	2,1	5	4	12	-2
Gonkong	6	-	-	-	-	-7	-4	-3	-15
Gonkongda qolgan import (qayta eksport mas)	1	0,9	0,3	0,1	0,2	-	-13	0	-29
Meksika	6	3,5	2,8	1,9	1,8	1	1	4	-13
Jami TOR-10	169	61,3	59,3	52,4	53,8	-			

7 World Trade Statistical Review 2021y.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda 7,5 mingdan ortiq to'qimachilik korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2018-yil yakuniga ko'ra to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 13,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 107,4 % ga teng bo'ldi va 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida esa to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sur'ati 2018-yilga nisbatan, 5,7 %ga o'sdi va amaldagi narxlarda 18 trl. 217 mlrd. 500 mln. so'mni tashkil etdi. Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 12,0 % ni tashkil etdi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti hajmlarining oshishi paxta xomashyosi eksportini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarib va yuqori qo'shimcha qiymat yaratish orqali eksport hajmini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir. Jumladan, 2019-yilda 1,6 mlrd. AQSH dollarga teng to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 9,1 % ni tashkil etdi va 2018 yilga nisbatan 1,3 barobarga o'sdi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ir (56,9 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (21,8 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 432 turga yaqin to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 59 ta davlatiga eksport qilingan.

Jahon savdo tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, yil oxirida 2010-yil darajasiga nisbatan eng yaxshi 10 ta global TOR to'qimachilik eksportchilari o'z mahsulotlari hajmlarini oshirishga erishgan. XXR (1,0 %) va Vetnam (8,0 %) mamlakatlarida 2019-yilga nisbatan o'sish, qolgan mamlakatlarda rasayish kuzatilgan. Eksport hajmi 2020 -yildan 2019-yilga nisbatan yuqori o'sishi Vetnamda kuzatilib, o'sish darajasi 8 % ni tashkil etgan, eng yuqori rasayish Xitoy Tayreyda kuzatilib, uning darajasi 8 % ni tashkil etgan.

Hozirgi kunda ilmiy-texnika taraqqiyotini intensivlashtirish, an'anaviy kiyim-kechak va uy-ro'zg'or buyumlaridan tashqari to'qimachilikni qo'llash ko'lamini kengaytirish tufayli sanoatning ahamiyati oshib bormoqda. Xususan, to'qimachilik mahsulotlari kosmik va harbiy texnologiyalarda tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Bunday texnologiyalarga egalik qilish davlatning sanoat siyosatini strategik muhim yo'nalishi hisoblanadi. Hozirda respublikamiz uchun muhim bo'lgan mahalliy to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun yetarlicha salohiyatga egamiz.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj bozoridagi asosiy eksportchilar uzoq vaqtdan beri Xitoy Xalq Respublikasi (XXR), Yevropa Ittifoqi va Hindiston hisoblanadi. Ularning mazkur mahsulot guruhi jahon eksportida birgalikdagi ulushi 79,4% ni tashkil etadi.

Jahonda kiyim-kechak mahsulotlariga bo'lgan talab darajasi aholi sonini ko'rayishi hisobiga yildan-yilga oshib bormoqda. To'qimachilik mahsulotlari bozoridagi o'zgarishlar kiyim-kechak bozoriga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jahonda kiyim-kechak mahsulotlari eksportida ham Xitoy Xalq Respublikasi keyingi yillarda yetakchilik qilib kelmoqda. Ushbu davlatning kiyim mahsulotlari eksporti 2020-yilda 152 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 4% ga kamayish ro'y bergan. Keyingi o'rinni Yevropa Ittifoqi mamlakatlari egallab, ushbu davlatlarning 2020-yildagi kiyim-kechak mahsulotlari eksporti hajmi 2019-yilga nisbatan o'zgarishsiz qolib, 136 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan.

Mutaxassislar tomonidan qayd etilgan va jahon to'qimachilik va tikuv-trikotaj bozorining hozirgi holatini shakllantiradigan muhim omil – bu XXRning jahon eksportidagi ulushi ortishining davom etishi tendensiyasidir. Shu bilan birga, hozirda ushbu mamlakatda ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi kuzatilsada, XXRning ulushi o'sishi trendi saqlanib qolingan.

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I BOB. YENGIL SANOAT KORXONALARIDA HISOB VA AUDITNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

- 1.1. O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining
hozirgi holati hamda rivojlanish istiqbollari6
- 1.2. Xo'jalik subyektlarida xarajatlar hisobi va
mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashning xalqaro
tajribalardan foydalanish yo'llari 29
- 1.3. Auditorlik faoliyatining xalqaro tajribasi va uni
tarmoq korxonalariga joriy etish imkoniyatlari 45
- Birinchi bob bo'yicha xulosa 53

II BOB. TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI, TANNARX ANIQLASH VA MOLIVAVIY NATIJALARNING BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

- 2.1. "Xarajatlar – mahsulot hajmi – foyda" zanjiri asosida
boshqaruv hisobini yuritishning xususiyatlari..... 56
- 2.2. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning
zamonaviy usullarini joriy etish samaradorligi..... 74
- 2.3. Mahsulot tannarxi va moliyaviy natijalarga ta'sir
etuvchi omillarni prognozlash..... 98
- Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....125

III BOB. TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR BOSHQARUV TAXLILINING AXBOROT-USLUBIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

- 3.1. Xarajatlarning dastlabki, yig'ma hisobi va
hisobotini takomillashtirish.....128

3.2. Xarajatlarning analitik va sintetik hisobini AKTda qayta ishlash masalalari	141
3.3. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalar tahlilini takomillashtirish.....	154
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	163

**IV BOB. TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ
KORXONALARIDA AUDIT METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

4.1. Ichki auditning xalqaro standartlarini boshqaruv jarayonlariga tatbiq etish usullari	164
4.2. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining auditini mukammallashtirish.....	183
4.3. Moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish.....	189
To'rtinchi bob bo'yicha xulosa.....	215
 XULOSA.....	 217
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	220
ILOVALAR	228